



Ta'limda tarbiyani mustahkamlashning psixologik omillari

Shokirova Feruza Sobir qizi

Shofirkon tumani 9- umumiy o'rta ta'lim
maktab amaliyotchi psixologi

Anotatsiya: Bu uslubiy tavsiyada ta'limda tarbiyaviy jarayonlarga alohida e'tibor qaratilishi lozimligi va tarbiyani mustahkamlovchi fikr mulohaza va takliflar yoritilgan

Kalit so'zlar: “Ta'lim”, “Tarbiya”, “Din”, “Zamonaviylik”, “Suitsid”, “Urf-odat”,

Аннотация: В этой работе раскрыты вопросы по усовершенствованию воспитательной работы в образовании учитывая просьбы пожелания.

Ключевые слова: Образование, Воспитание, Нация, Современность, Суицид.

Abstract: The methodological recommendation emphasizes the need to pay special attention to the educational and upbringing progress and give suggestions that strengthen their education.

Key words: education, upbringing, modernity, reading, custom.

Ta'lim islohotini muvafaqqiyati uning o'zgarib, rivojlanib borayotgan dunyoning talablariga javob berish bilan belgilanadi. Ta'lim jarayonida ishtirok etuvchi har bir mutaxassis o'z sohasini mohir bilimdoni bo'lish bilan bir qatorda, ta'lim-tarbiya faoliyatini olib borish bilan bog'liq zarur ijtimoiy komponentlarni ham o'zlashtirgan bo'lishi lozim. Shu o'rinda bir savol tug'iladi tarbiyaviy islohotlarning muvafaqqiyati nima bilan belgilanadi. Buyuk adibimiz Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo xayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir” degan gaplari hali



xam o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q yo'qatmaydi xam. Chunki, o'smirlik yoshiga kelib shaxs shakllanayotgan bir davrda xulqidagi og'ishlarning asosiy sabablaridan biri bu tarbiyadagi xatolar va noto'g'ri dunyoqarash bo'lib qolmoqda. Albatta xulq og'ishiga yana bir qator sabablar xam yo'q emas, shulardan yana bir sabab deya hozirgi zamonaviy yoshlarda diniy tarbiyaning mukammal emasligi va yetishmasligidir. Chunki ohirgi paytlarda yoshlarimiz yevropaga intilib o'zining asl kim ekanligini, kimlarning avlodi ekanligini, qaysi masxabga, qaysi dinga e'tiqod qilayotganini unutib qo'yayotganlar ko'pchilikni tashkil etmoqda. Yoshlar ongiga mustahkam o'rnashib qolgan “Zamonaviylik” so'zi niqobi ortida nimalar turibdi. Yevropacha urf-odatlar, an'analari, chet el bayramlari, so'zlashuvidan tortib kiyinish madaniyati ham butunlay yurtimiz yoshlarining ongiga singib qolmoqda. Yoshlar nazarida bu shunchaki odat tusiga kirib qolgan. Singib qolish bilan bir qatorda o'zining salbiy ta'sirlarini ham ko'rsatmay qolmayapti. So'nggi yillarda yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik holatlari, o'z joniga qasd qilish, turli jinoiy ishlarga va terroristik guruhlariga qo'shilib qolish, bir-biriga nisbatan zo'ravonlik, diniy aqidaparastlik, holatlari judayam ko'payib ketmoqda. Bunday noodatiy holatlarga barchamizning ko'zlarimiz va quloqlarimiz o'rganib qolayotganligi ham achchiq haqiqat.

Bunday salbiy holatlar avj olishini tag zamirida yoshlarimiz ongidagi ma'naviy immunitetning pastligi va diniy ta'limotlar zahirasi yetishmasligi emasmi?

Biz qaysi millatmiz? Qaysi din vakilimiz? Bizning o'zligimiz o'zbekligimiz qayerda qolayapti? Yosh avlod qayoqqa qarab ketayapti? Bunday savollar har bir o'zligini tushungan shaxslarni qiynayapti albatta.

Yuqoridagi muommolarning yechimi sifatida bizning ta'lim tizimining hech bo'lmaganda boshlang'ich sinflarida mahsus islom dinini mukammal o'rgatish uchun dars soatlari ajratilishi va fan sifatida o'qitilishi lozim deb o'ylayman. Chunki din insonning e'tiqodini mustahkamlovchi asosiy vositadir. Agar e'tiqod mustahkam bo'lmasa yot g'oyalar va notog'ri yo'llarga qadam qo'yish holatlari sodir boladi. Ushbu darslarni oddiy o'qituvchilar emas, imom xatiblar, otin oyilar va maxsus bilim, ko'nikma, malaka,



sertifikatga ega bo’lgan shaxslar o’qitishlari maqsadga muvofiq. Ushbu fan darsliklari esa O’zbekiston Respublikasi musulmonlar idorasi tomonidan ishlab chiqilib amaliyotga tadbiq qilinishi lozim.

Albatta tarbiyada mukammal formula yo’qki, jamiyatda hamma bola bir xil darajada tarbiyalansa. Xar bir bola o’ziga xos ijtimoiy muhitda o’sadi, tabiiyki unga ijobiy xamda salbiy ta’sirlar turlicha bo’ladi. Bolani voyaga yetgunicha oq choyshabga o’rab katta qilishning iloji yo’q va doim xam bolaga yetarlicha e’tibor qila olmaymiz. Qaysidir vaziyatda kimningdir e’tiborsizligi, kimningdir aybi bilan bola “yomon bola”ga aylanib qolayapti. Bobo buvisi, ota-onasi, yaqinlarining e’tiborsizligi, o’z vaqtida bola bilan shug’ullana olmasligi natijasida yuzaga kelayotgan salbiy xususiyatlarini maktabdagi tarbiyaviy jarayonda o’zlashtirsa ajab emas. Zero islom dini har doim insonlarni yaxshilikka yetaklagan ezg’ulik urug’ini sochishga hizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Psixokorreksion trening mashg’ulotlar xulqi o’g’ishgan o’quvchilar bilan psixologik korreksion-rivojlantiruvchi treninglar/ A.Abdullayev Toshkent 2017
2. “Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari”. Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi. Toshkent-2005.